

O'ZBEK XOREOGRAFIYA SAN'ATI, UNING RIVOJLANISHI TARIXI

Muslima Mahmudova

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "Xoreografiya jamoalari rahbari"

4 kurs (sirtqi) ta'lim yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17158468>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek milliy raqs san'atining tarixi, evolyutsasi, raqsning hayotdagi ma'naviy-tarbiyaviy o'rni, hamda bugungi kunda milliy raqs san'atining istiqbollari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: raqs, san'at, tarbiya, ma'naviyat, tarix, xoreografiya, nafosat.

Eng qadimiy ibtidoiy davrdan to bugunga qadar jamiyat hayoti bilan hamoxang yashab kelayotgan raqs san'ati tuyg'ularni harakat va holatlarda, imo-ishoralarda(mimika) shunday nafis ifodalaydiki hayratlanmay iloj yo'q. Oddiy harakatlarga jon baxsh etish, u orqali badiiy obraz yaratish bilan chinakam raqs asari yaraladi. Raqs, uning tasviri, kompozitsiyasi haqida o'ylab, bir jihatning ikkinchisiga o'tishi, ularning aloqasi mantig'ini tushungandek bo'ldim. Buni tushunganingdan

keyin uning uyg'unligi, ohangdorligi kelib chiqadi, mutanosibligi vujudga keladi. Bu raqs san'atidagi eng muhim jihatdir. Shundan rang-barang nafosat namoyon bo'lishi mumkin. Aks holda, u shunchaki badantarbiya, quruq harakatdan iborat bo'lib qoladi. Tuzsiz, rangsiz harakatlar takrorlanaveradi. Faqat yuqoridagilar hisobga olingandagina raqsda mazmun, ifodaviylik zohir bo'ladi. Bizgacha yetib kelgan raqslarning tur va janrlari rang-barangligi hayratga solarli darajada.



Shu kunlardagi raqs san'atimizda bir qancha qatlam aniq ko'rinib turadi: kelib chiqishiga ko'ra ajdodlarimizning ibtidoiy tasavvurlariga aloqador muqallidlar va marosim o'yinlari; bir zamonlar zardushtiylikning ramziy obrazlari va muqaddas kitobi "Avesto" arkonlari bilan bog'liq holda maydonga kelgan raqslar, o'rta asrlarda maqom musiqasi bilan mustahkam aloqada shakllangan mumtoz raqslar; Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari hududlarida tarkib topgan Buxoro, Xorazm va Farg'ona raqs uslublari; XX asrda professional va havaskorlik ansambllari faoliyatida keng rivojlangan xalq sahnaviy raqslari, zamonaviy estrada, sirk, teatr raqslari, bolalar raqsi va hokazolardir. Madaniyat va san'at sohasining rivoji o'z-o'zidan jamiyat rivojiga, jamiyat rivoji esa mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Inson ma'naviyatini yuksaltiradigan, uning ruhiy olamini poklaydigan, ezgu amallarga yo'naltiradigan eng muhim omil bu albatta san'at hisoblanadi. Har bir yaratilgan va yaratiladigan san'at asarlari insonni ulug'lovchi, uning orzu-umidlari, his-tuyg'ulari, o'y-kechinmalarini badiiy tarzda ifoda etadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonlaridan bizga ma'lumki, har bir davrda yaratilgan san'at namunalari

o'sha davr muhitiga hamoxang bo'lgan. Jamiyat va davlatlarning taraqqiy etishi bilan san'at ham turli yo'nalish va turlar bilan boyib borgan.



So'nggi yillarda farovon va ozod hayotimizni, baxtiyor yoshlikni, chin sevgi, sadoqat va hushchaqchaqlikni tarannum etuvchi zamonaviy, dilbar raqslar, avlod-ajdodlarimizning hayoti, urf-odat-larini yana yangi avlodga yetkazib berayotgan folklor raqslari ko'paydi. Ularda zamonaviylik bilan birga milliy ruh hamohang ifodalanishi raqs san'atining yutuqlaridan deyish mumkin. Xoreografiya va raqs asoslari fani san'atshunos-jurnalistlarni o'qitishda zarur fanlardan hisoblanadi. Ushbu fan xoreografiya va raqs san'ati asoslarini, shakllanishi va taraqqiyotini, tarixini, turli millatlarning folklor va etnografiyasi, xalq ijodiyotining turlari va farqlari, raqs san'ati janrlari o'qitiladi. Xoreografiya va raqs san'ati ta'limida "Ustozshogird" an'analari juda keng miqiyosda yo'lga qo'yilgan. O'zbek raqsi XX - asr davomida xalq orasida bayram va marosimlar bilan bog'liq holda an'anaviy va zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan shakllarda yashab keldi. Xalq raqsi va sahnaviy raqs bir-birini to'ldirgan hamda ta'sir ko'rsatgan holda muayyan bosqichlarni bosib o'tdi.



O'zbek raqs maktabi asoschilari Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva va ularning safdoshlari Isohor Oqilov, Roziya Karimova, Gavhar Rahimovalar mashaqqatli mehnat qildilar, ijodiy izlanishlar olib bordilar. Keyin ularning safdoshlari mashaqqatli mehnat qildilar, ijodiy izlanishlar olib bordilar va bizgacha juda kerakli bilimlar qoldiradilar. Ularning sayi harakatlari natijasida tashkil qilingan "Bahor" (1957), "Shodlik" (1968), "Lazgi" (1957) raqs ansambllari butun jahonni lol qoldirib zabt etdi. Viloyatlarda

tashkil qilingan havaskorlik ashula va raqs ansambllarida oddiy mehnatkash xalq orasidan haqiqiy iste'dodli raqqos va raqqosalarni izlab topdilar. Ularni raqs san'ati bo'yicha ta'lim olishlari uchun Toshkentda yangi ochilgan balet maktabiga jalb qildilar. Keyin o'z bilim va ko'nikmalarini mehir bilan berdilar, o'qitdilar. Ular tarbiyalagan Tamara Yunusova, Zulayho Rahmatullayeva, Dilbar Abdullayeva, Erkinoy Rasulxo'jayeva, Nella Bashirova, Valentina Romanova, Ra'no Nizomova, Dilara Karimova, Liliya Rasulova, Alla Rahimjonova, Samiyy Ahmadiyeva, Erkinoy Rasulova, Mo'tabar Yo'ldosheva singari raqqosa qizlar ilk raqs ansamblining qaldirg'ochlari bo'lib tarixda qoldilar.

Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isohor Oqilovlarning sayi harakatlari tufayli o'zbek milliy raqs maktabiga asos solindi. Ular birgalikda betakror va o'ziga xos o'zbek milliy doira usullariga raqs harakatlarini yaratdilar, 5 qismdan iborat bo'lgan "Doira darsi", darsligini ishlab chiqdilar. Bugungi kungacha ushbu darslik o'zbek raqs san'ati ta'limida "Raqs alifbosi" sifatida qo'llanilib, ko'z qorachig'iday asrab avaylab kelinmoqda. Roziya Karimova o'zbek raqs maktabining uchta yo'nalishi bo'yicha bir qancha o'quv adabiyotlarini yaratdi. Musiqa va san'at maktablari, kollejlari, litseylari iqtidorli, iste'dodli yoshlarning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qilgan bo'lsa, institutda minglab raqqosalar, baletmeysterlar, pedagoglar yetishib chiqib, shu soha bo'yicha ta'lim berishga ijodiy faoliyatga safarbar qilinmoqda.

Ular baletmeyster va pedagoglar sifatida badiiy ijodiyot taraqqiyoti rivojiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Ustoz M.Turg'unboyeva, I.Oqilovlar sahnalashtirgan raqslar hozirgi kun raqs ta'limida "Merosiy raqslar" predmeti sifatida, sof holda yangi ijrochilarga o'qitilib kelinmoqda. Yetuk baletmeysterlar hisoblanmish Qunduz Mirkarimova, Yulduz Ismatova, Ravshanoy Sharipova, Viloyat Oqilova, Shokir Ahmedov, Qodir Mo'minov, Karima Uzoqova shu kabi taniqli raqs san'ati yulduzlari, raqs san'atida obroz yaratish bo'yicha o'z maktablariga, ajiralib turuvchi uslublariga ega bo'ldilar. Raqsni xalqimiz o'zining eng sevgan san'at turi sifatida qabul qilishi bu musiqa va tana harakatining mukammal va betakror takrorlanmasligidandir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Avdeyeva L.A. O'zbek milliy raqsi tarixidan - T.: M.Turg'unboyeva nomidagi "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi, 2001.
2. Globallashuv jarayonida xoreografiya san'ati sohasida milliylikni saqlash muammolari. Respublika ilmiy -amaliy anjumani materiallari to'plami. - Toshkent: Iqtisod - moliya nashriyoti, 2012 y.
3. Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi. Qadim zamonlardan XIX asrga qadar.-Toshkent: Fan, 1975 y. 170 b.
4. Avdeyeva L. Tansevalnoye iskusstvo Uzbekistana. Na uzbekskom yazike. Goslitizdat, Tashkent. 1960 g.
5. Karimova R., Sobirova F. Nursafardiyya harakatlar tizimida o'zbek milliy raqslari va jangovar o'yinlari. Toshkent: "Lider Press" nashriyoti, 2008. - 331 s.
6. Saitova E.Y., Abraykulova N.Ye. Xoreografiya va raqs san'ati asoslari. - T.; "Navro'z", 2015, 156 b.
7. Qodirov M. "Tanovar" raqsi sehri / Avdeyeva L. va boshq. "Tanovar" raqsi jilolari - Tansy

“Tanovar”. Tahrir hay’ati: F.Karomatov, A.Meliboyev va boshq. – T.: G’G’ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi., 2002.

